

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLAYEVA DILNOZA UBAYDULLOYEVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QUV
JARAYONIDA AQLLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Fayzullayeva Dilnoza Ubaydulloyevna

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish 3

Файзуллаева Дилноза Убайдуллоевна

Развитие навыков использования умных (смарт) технологий в учебном процессе у будущих учителей английского языка. 27

Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna

Developing future English teachers’ skills in using smart technologies in the educational process 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLAYEVA DILNOZA UBAYDULLOYEVNA

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QUV
JARAYONIDA AQLLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/Ped4907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: Maxmudova Muyassar Maxmudovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Buranova Madina Uktamovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Utayeva Iroda Baxodirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01, raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "15" oktyabr 11:30 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6221 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" Sentyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "30" Sentyabr kuni № 36 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya professor fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadallashmoqda. Bugungi kunda ta'limda aqlli texnologiyalarni qo'llash orqali bilim olish jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilar va talabalarni mustaqil fikrlashga, innovatsion yondashuvlarga, ijodiy faoliyatga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aqlli texnologiyalar o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirish, ta'lim mazmunini yangilash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Jahon ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Xususan, raqamli va aqlli texnologiyalarni ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning ajralmas omili sifatida qo'llash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mazkur texnologiyalar asosida tayyorlash ularning kasbiy salohiyatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Aqlli texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta'lim jarayonida interaktivlikni kuchaytiradi hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Respublikamizda chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar, shuningdek, ta'lim tizimini xalqaro CEFR talablari asosida tashkil etish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan yuqori malakani, innovatsion va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanishda yetarli tayyorgarlikka ega emaslar. Ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik model va uslubiy ko'rsatmalar tizimi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shundan kelib chiqib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish masalasini ilmiy asosda o'rganish va metodik jihatdan ta'minlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, kelajakdagi ingliz tili o'qituvchilarini raqamli ta'lim muhitida samarali ishlashga tayyorlash va xalqaro standartlarga mos kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim sohasida raqobatbardosh, yetuk kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish yo‘lida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida¹ ilm-fan yutuqlari asosida elektron platformalarni joriy etish, shuningdek, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish zarurligi alohida ta’kidlandi. Ushbu tashabbuslar “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmon² bilan mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-son Qarorida³ xorijiy tillarni o‘qitishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ta’lim sifatini tubdan oshirish, malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishini oshirish kabi vazifalar belgilangan. 2022-yil 28-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonida⁴ “Inson qadrini ulug‘lash va faol ijtimoiy siyosat yuritish” birinchi yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, unda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uning mazmunini yangilash, barcha bosqichlarda qamrovni kengaytirish, sifatni oshirish va pedagoglarning maqomini yuksaltirish kabi muhim vazifalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini raqamlashtirish orqali ochiq va shaffof tizim yaratish, elektron darsliklar, interaktiv platformalar va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan. Mazkur me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi va dissertatsiyada ko‘zda tutilgan ilmiy vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy–ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarini o‘qitish metodikasi va sohaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan quyidagi mahalliy olimlar ishi o‘rganildi: J.J.Jalolov, X.T.Mustafoyeva,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar // Xalq so‘zi. – 2020. – 25-yanvar. – № 19. – B. 1–6.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF–6079-son // Xalq so‘zi. – 2020. – 6-oktabr. – № 198 (7658).

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Chet tillarni o‘rganish jarayonini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: Prezident qarori, 2021-yil 6-may, PQ–5117-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2021. – №19. – B. 135–138.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida: Prezident farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2022. – №4. – B. 36–41.

O‘.Hoshimov, L.T.Axmedova va boshqalar⁵. Axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish va smart texnologiyalardan orqali o‘qitish bo‘yicha L.T. Abdullayeva, R.H. Ayupov, N.N. Azizxo‘jayeva, G.R.Baltabaeva, G.T.Makhkamova, S.S.G‘ulomov, U.Sh.Begimqulov, A.E. Begbo‘tayev, Sh. A.Yusupovalar kabi mahalliy olimlarimiz izlanishlari o‘rganildi⁶. Didaktik va uslubiy masalalar X.I.Ibragimov va boshqa olimlar ishlarida o‘rganildi⁷.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) olimlarning raqamli ta‘lim muhitining xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari dissertatsiyani yozishda yordam bergan, jumladan, axborot–ma‘rifiy muhitda o‘quv faoliyatini tashkil etish muammolari smart va kompyuter texnologiyalari vositalarining o‘rni va vazifalari A.Andreyev, A.M.Atayan, V.P.Bespalka, M.E.Vayndorf–Sisoeva, M.N.Ishemgulova, G.V.Ivshina, G.I.Kirilova, N.Yu.Kulikova, E.S.Po‘lat, E.I.Mashbits, I.V.Robert, A.V.Slepuxin, T.A.Starshinova, E.V.Chernobay va boshqalar⁸ tomonidan o‘rganilgan.

⁵Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodologiyasi: Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b., Mustafoyeva X.T. Ingliz tili Grammatikasini Ijtimoiy-Gumanitar fakulteti talabalariga o‘rgatishning lingvistik metodlari xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2003. –140 b., Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2003. – 302 b., Axmedova L.T., Kon O.B. Учебник по методике преподавания литературы: – T.: Нац.об-во философов Узбекистана, 2009. – 306 b.

⁶Abdullaeva L.T. Talabalarining sotsiolingvistik kompetentsiyasini elektron resurslar asosida takomillashtirish (ingliz tili misolida). ped. fan...(PhD) diss. avtoref. – Samarqand.:2022. – 58 b.,Ayupov R.H. Aqli ta‘lim texnologiyalari: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-mahsus ta‘lim vazirligi: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti : O‘quv qo‘llanma – T.: O‘z Nashr, 2022. – 280 b., Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b., Boltaboeva G.R., Ayupov R.H. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning elektron tijorat samaradorligini oshirishdagi o‘rni va imkoniyatlari: Monografiya. – T.: Toshkent Moliya Instituti, 2023. – 662 b., Makhkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching: Darslik – T.:Fan va texnologiya, 2017. – 232 p., G‘ulomov S.S. Axborot tizimlari va texnologiyalar. Darslik. – T.: sharq , 2000. – 592 b., Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyasilarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: Monografiya. – T.: Fan nashriyoti, 2007. – 135 b., Begbo‘tayev A.E. “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning ilmiy - pedagogik asoslari: Monografiya. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2020. – 125 b., Yusupova Sh. A. Mustaqil ta‘lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish.ped. fan...(PhD) diss. avtoref. – Samarqand.:2022. –52 b.

⁷Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 400 b.

⁸Андреев А.А. Педагогика в информационном обществе, или электронная педагогика // Высшее образование в России, 2011. – №11. – С.113–117., Атаян А.М., Казарян М.Л., Кцоева Ж.Н. Информационные технологии и системы: Информационные технологии и системы в экономике: учебное пособие. – Владикавказ: ИПК «Литера», 2013. – 137 с., Беспалько В.П. О возможности системного подхода в педагогике // Педагогика,1990. – № 7. – С. 7-13., Вайндорф–Сисоева М.Е., Субочева М. Л. “Цифровое образование” как системообразующая категория: подходы к определению. Текст научной статьи по специальности: «Науки об образовании» 2018. – С. 3-5., Ишемгулов М.Н. Правовой аспект в использовании “Стрим-технологий” для документирования информации // Молодой ученый. 2016. – № 17. – С. 195-198., Ившина Г.В. Открытые ресурсы и дистанционные образовательные технологии в инженерном образовании. – Казан. – 265-269 с., Кирилова Г.И. Развитие и саморазвитие информационной образовательной среды профессионального образования. Образовательные технологии и общество. 2012. – № 15 (3),– С. 358-368., Куликова Н.Ю. Образовательная онлайн-платформа как фактор изучения интерактивных технологий обучения в условиях сетевого взаимодействия. Мир науки. Педагогика и психология, 2020. – №4, – Том 8. – С. 1-13 с., Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учебное пособие– М.: 2019. – 198с., Машбиц Е. И.Психолого-педагогические проблемы компьютеризации обучения. Учебник – М.: Педагогика. – С. 191., Роберт И.В. Цифровая трансформация образования: ценностные ориентиры перспективы развития. Труды Международного симпозиума «Надёжность и качество» Пензе, 2018. – Том 1, – 201 с., Слепухин А.В., Семенова И.Н. Классификация и проектирование методов обучения с использованием информационно-коммуникационных технологий // Образование и наука. 2013. – № 5. – С.

Chet tilini o‘qitish metodikasi va usullari S.S.Kuklina, R.P.Milrud, O.G.Polyanov, A.M.Novikov, N.D.Galskova, va boshqalarning tadqiqotlarida⁹, pedagogik va psixologik masalalarni hal etish uchun V.Okon, A.A.Verbitskiy, V.V.Davidov, S.Ermakov, V.V. Serikov, M.N.Skatkin va boshqa olimlar ishlari¹⁰, elektron ta’lim va smart texnologiyalar muhitini yaratish yuzasidan xorijiy mamlakatlarda G.T. Doran, M.M. Kutepov, D.Heyns, K.Vordon va boshqalar¹¹ ning ishlari o‘rganildi.

Til bilish ko‘nikmasini integrallashgan holatda oshirishga bag‘ishlangan asarlar E.Devis, L.Dukenson, N.Entvistl, P.Ramzden kabi xorijiy olimlar asarlari orqali tahlil etildi va o‘rganildi¹².

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy–tadqiqot muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining “Oliy ta’lim muassasalarini integratsiyalashgan holda chet tillarni o‘qitishning filologik va uslubiy bazasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

aqlli (smart) texnologiyalar o‘qituvchilarining ingliz tili fanini o‘qitishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga hamda o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali texnologiya ekanligini aniqlash;

aqlli (smart) texnologiyalar asosida tashkil etilgan onlayn kurslar orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ nutq madaniyatini

95–113., Старшинова Т.А., Маклецов С.В., Применение средств электронного обучения для формирования информационной компетентности. Вестник Казанского технологического университета. «Науки об образовании» 2012. – №17. – С. 330-333., Чернобай Е.В. Методика конструирования урока с использованием электронных образовательных ресурсов. Стандарты и мониторинг в образовании. 2010. – № 1. – С. 11-13.

⁹ Куклина С.С. Коллективная учебная деятельность в группе на этапе совершенствования навыков иноязычного общения // Иностранные языки в школе. 2018. – № 1, – С. 58., Мильруд Р.П. Компетентность в изучении языка // Иностранные языки в школе. 2020. – №7, – С.30., Полянов О.Г. Теоретические и практические аспекты разработки профильно-ориентированных программ по английскому языку // Иностранные языки в школе. 2019. – № 3, – С. 8-15., Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. Учебное пособие – М.: Либроком, – 280 с. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – М.: 2000. – 164 с.

¹⁰ Оконь В. «Введение в общую дидактику». 1987. – 5 изд. – 384 с. Вербицкий А. А. Психолого-педагогические основы контекстного обучения в вузе: автореф. дис. ... док. пед. наук. – М.: 1991. – 55 с., Давыдов В.В. Зинченко В.П. Предметная деятельность и онтогенез познания // Вопросы психологии. 2017. – № 5., Ермаков Д.С., Петрова Г.Д. Психолого-педагогические проблемы профильного обучения // Профильная школа 2015. – № 1, –34 с., Сериков В.В. Развитие личности в образовательном процессе / – М.: Логос, 2012. – 447 с., Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. Учебное пособие. – М.: Педагогика, 1984. – 96 с.

¹¹ Doran G.T. (1981). There’s a S.M.A.R.T. Way to Write Management’s Goals and Objectives. Management Review. 1981. – P. 35-36., Kutepov M.M. Smart technologies in education / M.M. Kutepov, E.A. Chelnokova, K.A. Maksimova // Baltic Humanitarian Journal. 2020. – Vol. 9, – No. 3(32), Heinz D. Kurz. The Routledge Handbook of Smart Technologies. Routledge, 27 February 2022, – 712 p., Worden K, Bullough W.A. & Haywood J. Smart Technologies. University of Sheffield, – UK, World Scientific Publishing Co. Pte. Ltd. – 271 p.

¹² Davis E. and Whitney N. Strategies for Reading. – London, Heinemann. 2019. – 201p., Duckenson L. Self-Instruction in Language Learning. – Cambridge University Press, 2017. – 87 p., Entwistle N.J. and Ramsden P. Understanding Student Learning. Beckenham. – Croom Helm, 2011. – 214 p.

rivojlantirish, jumladan, og‘zaki va yozma nutqda sohaviy atamalarni samarali qo‘llash, ixtisoslikka oid matnlarni tuzish, tahrir qilish va tahlil etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati asoslash;

aqli (smart) texnologiyalar asosida sohaga oid kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlash orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida fanga oid pedagogik va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli dalillash;

aqli (smart) texnologiyalar yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining fanga oid lingvistik, madaniyatlararo, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish shakllari, vositalari va ulardan foydalanish usullari takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayoni belgilangan va tajriba sinov ishlariga SamDChTI, GulDU va GulDPIdan tajriba (296 nafar) va nazorat (297 nafar) guruhlarini respondentlar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqli texnologiyalar asosida kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda quyidagi nazariy va empirik tadqiqot usullari to‘plami qo‘llanildi: nazariy – tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, modellashtirish, psixologik–pedagogik, tadqiqot; empirik – kuzatish, so‘roq qilish, anketa, test, suhbat, pedagogik tajribani o‘rganish, pedagogik tajriba; ma‘lumotlarga matematik -statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mutaxassislik fani bo‘yicha kasbiy va ijodiy bilimlarini oshirish hamda o‘quv jarayonini takomillashtirishda aqli (smart) texnologiyalardan foydalanish samaradorligi nazariy va metodik jihatdan asoslab berilgan;

aqli (smart) texnologiyalar asosida tashkil etilgan onlayn kurslar orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ nutq madaniyatini rivojlantirish, jumladan, og‘zaki va yozma nutqda sohaviy atamalarni samarali qo‘llash, ixtisoslikka oid matnlarni tuzish, tahrir qilish va tahlil etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati asoslangan;

aqli (smart) texnologiyalar asosida sohaga oid kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlash orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida fanga oid pedagogik va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli dalillangan;

aqli (smart) texnologiyalar yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining fanga oid lingvistik, madaniyatlararo, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish shakllari, vositalari va ulardan foydalanish usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining zamonaviy ta‘lim muhitida raqamli vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan 96 soatlik maxsus o‘quv-modul ishlab chiqildi. Ushbu modulda sun‘iy intellekt (AI), virtual va kengaytirilgan haqiqat (AR/VR), interaktiv platformalar (Kahoot, Quizlet,

Mentimeter), hamda LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom) kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga oid nazariy va amaliy topshiriqlar jamlangan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda ularni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik model ishlab chiqildi. Mazkur model quyidagi asosiy komponentlardan iborat: motivatsion, kognitiv, faoliyat (operatsion) va reflektiv bosqichlar. Model o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilinib, amaliyotda samaradorligini namoyon etdi;

talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik vositalar ishlab chiqildi. Bunga test topshiriqlari, kuzatuv xaritalari, so'rovnomalar hamda kompetensiyaviy baholash mezonlari kiradi. Ushbu vositalar yordamida o'quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlash imkoniyati yaratildi;

tajriba-sinov ishlari asosida aqlli texnologiyalar qo'llanilgan tajriba guruh va nazorat guruhlari o'rtasidagi o'quv ko'rsatkichlari solishtirilib, mazkur texnologiyalarning samaradorligi statistik tahlillar orqali isbotlandi;

tadqiqot doirasida olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etildi, shuningdek, respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdimotlar o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda nazariy ma'lumotlar, tasvirlash, tasniflash, matematik va statistik tahlilning aniq va samarali metodlari qo'llanilgani, nazariy xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida foydalanilgan ilmiy ma'lumotlar, taqdim etilgan metodlar, texnologiyalar hamda tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur, model va tavsiyalarni tayyorlash, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Amaliy ahamiyati aqlli (smart) texnologiyalar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sohaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi ilmiy–metodik tavsiyalar, onlayn kurslarini tashkil qilish orqali aqlli texnologiyalari mazmuni, tuzilishi, foydalanish vositalari va uslublaridan oliy ta'lim muassasalarida, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mutaxassislik fani bo'yicha kasbiy va ijodiy bilimlarini oshirish hamda o'quv jarayonini takomillashtirishda aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanish samaradorligi nazariy va metodik jihatdan asoslab berilganligi haqidagi xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR 3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalandi (Qarshi davlat universitetining 2025- yil 9- iyuldagi, 04/3159 raqamli ma'lumotnoma). Natijada, mazkur loyiha doirasida o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishga erishildi;

aqlli (smart) texnologiyalar asosida tashkil etilgan onlayn kurslar orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ nutq madaniyatini rivojlantirish, jumladan, og'zaki va yozma nutqda sohaviy atamalarni samarali qo'llash, ixtisoslikka oid matnlarni tuzish, tahrir qilish va tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati asoslanganligi yuzasidan olingan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship" xalqaro loyihani amalga oshirishda foydalandi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 13-iyundagi, 1229/02 raqamli ma'lumotnoma). Natijada, loyiha doirasida onlayn kurslar tashkil qilishga xizmat qildi;

aqlli (smart) texnologiyalar asosida sohaga oid kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlash orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda fanga oid pedagogik va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli dalillanganligi haqidagi xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion xalqaro loyihani amalga oshirishda foydalangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyuldagi, № 01/4-3017 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy ish xulosalari loyiha doirasida dasturiy vosita yaratishga xizmat qildi;

aqlli (smart) texnologiyalar yordamida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining fanga oid lingvistik, madaniyatlararo, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish shakllari, vositalari va ulardan foydalanish usullari takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutidagi Yevropa Ittifoqining "Erasmus+ 58545- EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP" CLASS: Computational linguistics at Central Asian universities" nomli xalqaro loyiha doirasida foydalangan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 17-iyuldagi 2101/02 raqamli ma'lumotnoma). Tadqiqot natijalarini joriy qilish mazkur loyiha doirasida yaratilgan o'quv qo'llanmalarini shakllantirish va ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar 7 ta maqola, 3 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 2 xalqaro jurnalda, 1 ta uslubiy tavsiyanomada, 1 ta uslubiy qo'llanmada va 1 ta o'quv qo'llanmada.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlari va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qitish jarayonida aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib ikkita faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasli **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda aqlli (smart) texnologiyalar ahamiyati, tarixi va ularni ta'lim jarayoniga transformatsiyasi”** deb nomlangan bo'lib, mazkur faslda aqlli texnologiyalarni jahon hamjamiyatidagi salmoqli ahamiyati, aqlli texnologiyalar tushunchasini diskurs tahlili, ta'lim jarayonida samarali qo'llana boshlanishi tarixi bosqichlari, ilmiy-nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi raqamli davrda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Xususan, ingliz tilini o'qitish sohasida bu texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning til ko'nikmalarini mustahkamlash, dars jarayonini interaktiv va vizual jihatdan boyitish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida smart texnologiyalarni o'zlashtirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Aqlli texnologiyalar zamonaviy raqamli vositalar – sun'iy intellekt, IoT (buyumlar interneti), mobil ilovalar, bulutli platformalar, interaktiv doskalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, shuningdek, LMS (Learning Management System) kabi tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini moslashuvchan, interaktiv va uzluksiz holga keltirib, talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida real vaqtli muloqot va faol hamkorlikni ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar tarixi ta'limga kompyuterlarning kirib kelishi bilan boshlangan bo'lib, 1960-yillardan boshlab CAI (Computer Assisted Instruction) tizimlari shakllana boshlagan. 1990-yillarda internetning ommalashuvi bilan elektron ta'lim, onlayn testlar va masofaviy o'quv platformalari rivojlandi. 2000-yillarda multimedia va interaktiv usullar dars jarayonini jonlantirishga xizmat qildi. So'nggi yillarda esa AI (sun'iy intellekt), VR/AR, va generativ texnologiyalarning (masalan, ChatGPT) kirib kelishi ta'limda chuqur o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, smart texnologiyalar yordamida o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasi aniqlanib, o'quv rejalariga mos o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Masalan, Singapurdagi “aqlli kampus” modeli,

Avstraliya, Yaponiya va AQShdagi virtual sinflar, interaktiv baholash tizimlari, smart kartalar orqali autentifikatsiya kabi tizimlar bu boradagi ilg'or yondashuvlarni namoyon etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham smart texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2016-yildan boshlab boshlangan "Zamonaviy raqamli texnologiyalar" loyihasi, pandemiya davrida joriy etilgan masofaviy ta'lim platformalari, 2022–2026-yillar taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan raqamli ta'lim siyosati bu jarayonning izchil davom etayotganligini ko'rsatadi. Aqlli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi: o'quv materiallarini interaktiv tarzda yetkazish; talabalarning bilim darajasiga mos o'qitish strategiyalarini tanlash; o'quvchilarni raqamli muhitda faoliyat yuritishga tayyorlash; o'qituvchining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish; tahliliy va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida aqlli texnologiyalarni o'zlashtirish, ularni amaliyotga joriy eta olish ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy metodik yondashuvlar asosida kasbiy salohiyatni oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylangan. Bu esa o'z navbatida, ta'limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va innovatsion o'qituvchilar avlodini yetishtirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XXI asr ta'lim tizimida raqamli va aqlli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat metodik yondashuvlarni, balki butun ta'lim paradigmasini tubdan o'zgartirmoqda. R.H. Ayupov¹³ tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda ta'lim jarayonini Learning Management System (LMS), sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, interaktiv platformalar va tahliliy monitoring orqali moslashtirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Bu texnologiyalar o'quvchi faoliyatini shaxsiylashtirish va mustaqil bilim olish trayektoriyasini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. M.Abdullaeva va M. Sobirova¹⁴ kabi tadqiqotchilar raqamli vositalarning til o'rgatishdagi metodik va psixopedagogik ahamiyatini asoslab, ularning ko'p sezgi kanallari orqali til ko'nikmalarini shakllantirishdagi samarasiga e'tibor qaratadilar. A.E. Begbo'tayev va Z.K.Bekturova¹⁵ esa o'quv jarayonida smart texnologiyalar orqali bilim olishni real, individual va funksional asosda tashkil etish zarurligini ta'kidlashadi. E.S.Po'lat va N.Selvin¹⁶ ta'limdagi raqamli texnologiyalarni tanqidiy tahlil qilib, texnologiya nafaqat texnik yangilik, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar

¹³Ayupov R.H. Smart ta'lim texnologiyalari: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-mahsus ta'lim vazirligi: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti : O'quv qo'llanma – T.: O'z Nashr, 2022. – 280 b.

¹⁴Abdullaeva, M. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rgatishning metodik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 120b., Sobirova D. Tillarni o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish. O'zDJTU ilmiy axborotnomasi, №2, 2022. – B. 45–51.

¹⁵Begbo'tayev A.E. "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishni takomillashtirishning ilmiy - pedagogik asoslari: Monografiya. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2020. – 125 b., Bekturova Z.K. SMART -технологии в образовании / З.К. Бектурова, Н.Н. Вагапова // Вестник «Өрлеу»-kst. 2015. – 3(9) – С. 17–21.

¹⁶Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учебное пособие– М.: 2019. – 198с., Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Publishing, 2016. – 224 p.

bilan chambarchas bog‘liqligini isbotlaydilar. Shuningdek, M. Alli va A.W.Beyts¹⁷ kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari mobil texnologiyalar, e-learning, m learning va kontekstual o‘rganishning afzalliklarini chuqur ochib beradi. Ularning izlanishlari raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlari, hamkorlikdagi faoliyati va individual yondashuv asosida rivojlanishini nazariy va amaliy asoslaydi. Dneprovskaya, Shevtsova va Robertlarning¹⁸ ishlari esa “SMART-ta’lim” konsepsiyasining murakkab didaktik model ekanligini ko‘rsatadi. Bu modelda asosiy e’tibor bilimdan ko‘ra kompetensiyalarga, tayyor axborotdan ko‘ra axborotni izlash, tahlil qilish va qo‘llash ko‘nikmalariga qaratiladi. Bu o‘zgarishlar o‘qituvchining an’anaviy rolini zamonaviy – fasilitator, mentor va kuratorlik vazifalari bilan to‘ldiradi.

Xulosa qilib aytganda, smart texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish nafaqat texnologik yangilik, balki ta’limning mazmun, metod va boshqaruv tizimlarining kompleks transformatsiyasidir. Bunday texnologiyalar yordamida tashkil etilgan raqamli ta’lim muhiti interaktivlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik va mustaqil o‘rganishga asoslangan bo‘lib, kelajak ta’lim modeli sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa nafaqat o‘quvchi, balki pedagoglarning ham raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni, yangi rollarni egallashini va butun ta’lim tizimini qayta dizayn qilishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning birinchi bobining ikkinchi fasli **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarni til bilish kompetensiyalarni rivojlantirishga qo‘yilgan talablar”** deb nomlangan bo‘lib unda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi asosiy omillar, til bilish kompetensiyasi tushunchasi, til bilish kompetensiyalariga qo‘yiladigan xalqaro va milliy talablar, O‘zbekiston Respublikasining davlat talablari, asosiy til kompetensiya yo‘nalishlari, til kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari tahlil qilingan.

Bugungi kunda O‘zbekiston hukumati xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Ta’lim tizimida yosh avlodni zamonaviy talablar asosida chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, CEFR tizimi asosida B2 va C1 darajadagi sertifikatlar talabi, ingliz tilida olib boriladigan ta’lim dasturlari, xorijiy hamkorlikni kengaytirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilar malakasini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Oliy ta’lim muassasalarida xorijiy mutaxassisliklarni ingliz tilida o‘qitish, xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishni rag‘batlantirish, universitetlar mustaqilligini kuchaytirish va innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish orqali xalqaro standartlarga mos ta’lim muhitini yaratish maqsad qilingan. Bu jarayon O‘zbekistonning ta’lim tizimini global integratsiyalashuvga olib chiqmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi

¹⁷Ally M. Mobile learning: Transforming the delivery of education and training: Collection.– Athabasca: Athabasca University Press, 2019. – 320 p., Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates, 2015. – 290 p.,

¹⁸Днепровская Н.В. Понятийные основы концепции smart образования / Н.В. Днепровская, Е.А. Янковская, И.В. Шевцова // Открытое образование. 2015. – № 6. – С. 43–51., Роберт И.В. Цифровая трансформация образования: ценностные ориентиры перспективы развития. Труды Международного симпозиума «Надёжность и качество» 2018. том 1, – 201 с.

davrda ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy, madaniyatlararo, kommunikativ va texnologik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. I. Ilxomova, T. Sattorov va M.A. Yusupova¹⁹ ishlarida loyiha metodlari, real kommunikativ vaziyatlar va sotsiomadaniy tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligi asoslangan. G.R. Raxmonov, S.N. Aliev va O.G. Polyanov²⁰ tomonidan ilgari surilgan kasbiy kompetensiya modeli esa refleksiya, mustaqil izlanish, faoliyatga asoslangan metodlar va kommunikativ topshiriqlarning rolini ochib beradi. Zamonaviy o'qituvchidan texnologik savodxonlik talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, Fedorova, Sobirova, Abdullaeva, Bekturova²¹ va boshqalarning tadqiqotlari multimodal resurslar, interaktiv platformalar va mobil ilovalar yordamida til o'rgatishning metodik asoslarini ko'rsatadi. Ularning ishlari ta'lim jarayonining emotsional, interaktiv va talaba markazli bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, J.J. Jalolov, Miltrud R.P., Kapaeva²² kabilar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvning shaxsiy, psixologik va kommunikativ jihatlari, CLT, TBL kabi metodlar orqali o'quvchini mustaqil, ijodiy va faol subyekt sifatida shakllantirish g'oyasi ilgari surilgan.

Shunday qilib, ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashda quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi: Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirish; Innovatsion metodlar (CLT, TBL, loyiha, drama metodi) va raqamli vositalarni integratsiyalash; Reflektiv va interaktiv usullar orqali mustaqil fikrlovchi, texnologik savodxon pedagogni tayyorlash; Ijodiy va kommunikativ salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan kognitiv va motivatsion muhit yaratish; Smart texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasini talaba tayyorgarligining ilk bosqichidan boshlab shakllantirish. Natijada, til o'qituvchilari tayyorgarligi shaxsga yo'naltirilgan, metodik yangilanishlar va raqamli transformatsiyaga tayangan holda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ushbu

¹⁹Ilxomova I. Nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarning ijtimoiy – Madaniy kompetentligi kontekstida nutq ko'nikmalarini takomillashtirish: ped. fan... dok. nomz. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2019. – 46 b., Sattorov T.K. Mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet tili muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida): ped. fan.(DSc) dok... diss. – T.: 2000. – 329 b., Yusupova M.A. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish tizimi. ped. fan...(PhD) diss. avtoref. – T.: 2021. – 29-b.

²⁰Raxmonov G.P. Педагогические основы формирования познавательного интереса к иностранному (английскому) языку у студентов: на материале вузов Республики Таджикистан. Автореф. дис. ... канд. пед. наук: – Душанбе, 2002. –160с., Алиев С.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональной компетенции будущих учителей иностранных языков в педвузах Республики Таджикистан (на материале английского языка): дисс. ... док. пед. наук. – Душанбе, 2009. – 374 с., Полянов О.Г. Теоретические и практические аспекты разработки профильно-ориентированных программ по английскому языку // Иностранные языки в школе. 2019. – № 3, – С. 8- 15.

²¹Федорова С.В. Возможности использования информационно-коммуникационных технологий на уроках английского языка в учреждении дополнительного образования. дисс. ... канд. пед. наук. – Якутск, 2008. – 156 с., Sobirova, D. Tillarni o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish. O'zDJTU ilmiy axborotnomasi, №2, 2022. – B. 45–51., Abdullaeva, M. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rgatishning metodik asoslari. O'quv qo'llanma. Tashkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 120b. Bekturova Z.K. SMART-технологии в образовании / З.К. Бектурова, Н.Н. Вагапова // Вестник «Өрлеу»-kst. 2015. – 3(9) – С. 17–21.

²²Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodologiyasi: Darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b., Мильруд Р.П. Компетентность в изучении языка // Иностранные языки в школе. 2020. – №7, – С.30. Капаева А.Е. О формировании готовности учащихся к самообучению иностранным языкам // Иностранные языки в школе. 2001 – №1 – С. 12-18.

yondashuvlar esa O‘zbekistonda zamonaviy, raqobatbardosh, xalqaro darajadagi pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqlli (smart) texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishining mazmuni, tuzulishi, vositasi va modeli”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida aqlli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish tayyorgarligini mazmuni va tuzulishi”** deb nomlanib, aqlli texnologiyalarni egallashga yo‘naltirilgan tayyorgarlik mazmuni asosiy komponentdantlari, tayyorgarlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli, tayyorgarlikning pedagogik shart-sharoitlari, natijaviy ko‘rsatkichlar haqida yoritilgan.

Bugungi kunda raqamli vositalar ta‘lim jarayoniga keng miqyosda kirib kelganligi sababli, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, innovatsion fikrlash, texnologik savodxonlik va raqamli madaniyat asosida shakllanishi zarur. Ta‘limning interaktivligi, moslashuvchanligi, differensial va shaxsga yo‘naltirilgan xususiyatlarini aynan aqlli texnologiyalar orqali ta‘minlash mumkin. Tayyorgarlik tushunchasi faqat bilimlar majmuini emas, balki shaxsning psixologik, axloqiy, kasbiy, g‘oyaviy-siyosiy va mehnatga oid jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Serikov, Slastenin, Polovnikova²³ kabi tadqiqotchilarning qarashlariga ko‘ra, tayyorgarlik tizimli, kompleks va funksional yondashuv asosida shakllanib, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy salohiyatini to‘liq baholash imkonini beradi. Xususan, mustaqil bilim faoliyatiga tayyorlik – kognitiv usullar va motivatsion omillarning uyg‘unligi asosida shakllanadi. Shu bois, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida mustaqil ishlash, yangi axborotni tahlil qilish, undan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish nihoyatda muhimdir. Aqlli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat texnik bilimlarga ega bo‘lishni, balki o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Bunday tayyorgarlik o‘qituvchining texnologik vositalarni didaktik maqsadlarga mos ravishda tanlay olish, ularni o‘qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish va ta‘lim jarayonini optimallashtirish ko‘nikmalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlarning uzviy uyg‘unligi asosida baholanadi: nazariy bilimlar, amaliy faoliyat, kommunikativ kompetensiyalar, tashkiliy ko‘nikmalar va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash salohiyati. Shu bilan birga, motivatsiya – bo‘lajak o‘qituvchining texnologiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, yangilikka ochiqqligi, texnologik vositalarni sinovdan o‘tkazishga tayyorligi – uning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligi – bu kompleks, ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, quyidagi uch asosiy tarkibiy qismdan

²³Сериков В.В. Развитие личности в образовательном процессе. – М.: Логос, 2012. – 447 с., Сластенин В.А. Исаев И.Ф. Гуманистическая парадигма и личностно-ориентированные технологии профессионального педагогического образования. – М.: Прометей, 1999. – 117 с., Половникова Н.А. Исследование процесса формирования познавательной самостоятельности школьников в обучении: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Ленинград: 1977. – 58 с.

tashkil topadi: Motivatsion komponent – o‘qituvchining texnologiyalarga nisbatan ijobiy munosabati, qiziqishi va ichki ehtiyoji. Kognitiv komponent – zamonaviy texnologiyalarni tushunish, ularning ta’limdagi imkoniyatlarini bilish. Faoliyat (operatsion) komponent – texnologiyalar bilan amaliy ishlash, ularni o‘quv jarayoniga integratsiyalash, interaktiv metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari. Har bir komponent o‘ziga xos mezon va ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ular orqali bo‘lajak o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Motivatsion tayyorgarlik to‘rt bosqichda (minimal, yetarli, yaxshi, yuqori) rivojlanadi va bu bosqichlar texnologik savodxonlikning hamda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlikning murakkablik darajasini aks ettiradi. Shuningdek, tayyorgarlik jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjud: motivatsion to‘siqlar, texnik va metodik bilimlarning yetishmasligi, tashkiliy muammolar va qo‘llab-quvvatlovchi muhitning zaifligi. Shu sababli, ushbu tayyorgarlikni samarali tashkil etish uchun uzluksiz metodik yordam, amaliy mashg‘ulotlar, zamonaviy o‘quv materiallari va shaxsiylashtirilgan o‘qitish strategiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini shakllantirish – bu nafaqat texnik vositalarni o‘zlashtirish, balki zamonaviy pedagogik faoliyatda innovatsion fikrlash, kommunikativ salohiyat va shaxsiy fazilatlarni uyg‘un rivojlantirish orqali amalga oshadigan ko‘p bosqichli, uzluksiz, tizimli jarayondir.

Ikkinchi bobning, 2-fasli **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarni aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish vositalari”** deb nomlanib, aqlli texnologiyalarni egallashni ta’minlovchi vositalarning turlari, ko‘nikmalarni shakllantirishdagi asosiy didaktik yondashuvlar, o‘rgatish vositalarining o‘zaro integratsiyasi modeli, o‘rgatish samaradorligini oshiruvchi qo‘shimcha vositalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining aqlli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aqlli texnologiyalar – o‘zining multimodal funktsionalligi, yuqori interaktivligi va moslashuvchanligi bilan dars jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini yaratadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interfaol doskalar, mobil sinflar, 3D obyektlar, simulyatorlar, bulutli platformalar, VR/AR va sun’iy intellekt ilovalari o‘quv jarayonining ajralmas texnik vositalariga aylangan. Bu vositalar yordamida talaba faol ishtirok etadigan, vizual va kinestetik faoliyatga asoslangan ta’lim muhiti yaratiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda quyidagi raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish muhim: interaktiv kontent yaratish, raqamli pedagogik dizaynni loyihalash, ma’lumotlar bilan ishlash, shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalarini ishlab chiqish, kengaytirilgan reallikdan foydalanish. Bunday yondashuv raqamli savodxonlikni, metodik tayyorgarlikni va innovatsion salohiyatni oshiradi. Ingliz tili o‘qitishda mobil ilovalar (Duolingo, ELSA Speak), interaktiv platformalar (LMS, Coursera, BBC Learning English), sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly, QuillBot) va VR/AR texnologiyalari (Mondly VR, Quiver AR) o‘quvchilarni multimodal,


immersiv muhitda faol ishtirok etishga undaydi. Ular orqaligina tinglab tushunish, o'qish, yozish va so'zlashish ko'nikmalarini integratsiyalash mumkin bo'ladi. LMS platformalari esa shaxsga yo'naltirilgan, teskari aloqa va monitoringga asoslangan ta'lim muhitini yaratadi. Shu bilan birga, texnologiyalarning samarali joriy etilishi o'qituvchidan chuqur metodik bilim, texnik vositalarni to'g'ri tanlash va ularni didaktik maqsadlarga yo'naltirishni talab qiladi. Bu esa raqamli pedagogik kompetensiyani shakllantirishni taqozo etadi. Biroq texnologiyalardan foydalanishda metodik bir xillik, texnik malakaning yetishmasligi, hamda moslashuvdagi muammolar mavjud. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishga tayyorligi zamonaviy ta'limdagi ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri ekanini ko'rsatadi.

Natijada, aqlli texnologiyalar ingliz tili ta'limini vizual, interaktiv va moslashuvchan tarzda tashkil etishga imkon berib, o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli vositalarni samarali qo'llay olishi ularning kasbiy tayyorgarligi, xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritishi va ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, raqamli va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish, uzluksiz metodik qo'llab-quvvatlash va innovatsion vositalarni amaliyotga joriy etish pedagogik ta'limning ustuvor vazifasiga aylanmoqda

Tadqiqot ikkinchi bobning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli(smart) texnologiyalar bilan ishlashga tayyorligini rivojlantirish modelini loyihalash”** 3-qismi bo'lib, unda modelni loyihalashning asosiy maqsadi, modelning asosiy komponentlari, model bosqichlari, modelning vizual ko'rinishi, kutilayotgan natijalar yoritilgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini rivojlantirish modeli pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatuvchi muhim tamoyilga aylanmoqda. Bu model orqali raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardosh, innovatsion va kreativ o'qituvchilarni tayyorlashga erishiladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorligini shakllantirishga doir didaktik modelning ishlab chiqilishi bu boradagi izchil va tizimli yondashuvga asoslanadi. Mazkur modelda konsentratsiyali ta'lim texnologiyasi asos qilib olingan bo'lib, u bilimlarni strukturaviy jihatdan samarali tashkil etish, o'quv jarayonini optimallashtirish va individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Didaktik modelning tarkibiy qismlarini – maqsadli, kognitiv, texnologik va natijaviy komponentlar tashkil etadi. Ular orqali talabalarning AKT kompetensiyalari, ya'ni umumiy foydalanish, pedagogik hamda fan-pedagogik yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy ko'nikmalari shakllantiriladi. YuNESKO tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bu yondashuv o'qituvchilarni nafaqat texnik vositalarni boshqarishga, balki ta'lim mazmunini vizual, interfaol va motivatsion usullarda yetkazishga ham tayyorlaydi. Aqlli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan didaktik model talabalarga interfaol doskalar, SMART Learning Suite dasturi, raqamli laboratoriyalar, geolokatsiya, 3D grafikalar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanish orqali real va amaliy faoliyatda o'z kasbiy malakasini

oshirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitini tashkil etish va talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda bu texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya va aqlli texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan o'qituvchining professional faoliyati nafaqat ta'lim sifatining yuqori darajasini, balki uning innovatsion salohiyati va kasbiy raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi. Didaktik modellar orqali shakllantirilgan kompetensiyalar kelajakdagi ingliz tili o'qituvchilari uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Modelning maqsadi quyidagicha: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalarni egallashlari hamda ularni ta'lim jarayonida mustaqil va samarali qo'llashlari uchun shart-sharoit yaratish, bunda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash (1-chi modelga qarang).



1-model. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli -texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish model

Motivatsion modulda – bo'lajak o'qituvchida kasbiy ehtiyoj, raqamli savodxonlik va mustaqil o'qishga ichki motivatsiya shakllantiriladi. Talabalarga ta'limda aqlli texnologiyalarning o'rniga oid tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan seminarlar, vebinarlar va interfaol suhbatlar taklif etiladi

Metodik modulda – aqlli texnologiyalarning asoslari, ularning turlari (VR, AR, LMS, AI, mobil ta'lim) va ularni qo'llashning didaktik yo'llari chuqur tahlil qilinadi. Talabalar o'quv loyihalarini ishlab chiqadilar, metodik materiallar yaratadilar hamda texnologik dizayn elementlarini o'rganadilar.

Jarayonli component – o'quv jarayonini turli shakl, metod va vositalar bilan boyitadi. Kurs mazmuni an'anaviy mashg'ulotlarni zamonaviy amaliy topshiriqlar, mini-testlar va mustaqil ishlar bilan uyg'unlashtirib, talabalarga nazariy hamda amaliy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Har bir modul funksional jihatdan yakunlangan birlik bo'lib, nazorat va tahliliy tadbirlar bilan yakunlanadi. O'quv jarayoni intellektual texnologiyalarni to'liq integratsiya qilgan holda tashkil etiladi. Ta'lim samaradorligi bevosita dars shaklini to'g'ri tanlash va faoliyat turlarini qo'llanilayotgan texnologiyalarga moslashtirishga bog'liq. Bu esa talabalar faol ishtirokini hamda o'quv materialini chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Refleksiv component – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini baholash mezonlari, indikatorlari va diagnostika usullarini o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv o'qituvchining kasbiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash va bilim hamda ko'nikmalarining o'sish dinamikasini kuzatishga imkon beradi.

Kutilayotgan natijalar: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining raqamli kompetentligini oshirish; mustaqil darslar ishlab chiqish va interfaol vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; aqlli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish qobiliyatini mustahkamlash; yangi texnologiyalarga moslashuvchanlikni oshirish, refleksiv tafakkurni rivojlantirish va o'zini-o'zi rivojlantirishga barqaror motivatsiya hosil qilish.

Mazkur model bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llashga tayyorlash va zamonaviy ta'lim talablari darajasida pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun mustahkam nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Model o'zining moslashuvchanligi va bosqichma-bosqich yondashuvi bilan ajralib turadi. Talabaning tayyorgarlik darajasiga qarab — minimal (10 ta moduldan 6 tasi), optimal (8 tasi) yoki to'liq (10 modul) — modulni tanlash imkoniyati individual ta'limiy yo'nalishlarni loyihalashga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tizimlilik, moslashuvchanlik va natijadorlik tamoyillariga asoslangan mazkur model bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish uchun samarali nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi bob **“Bo'lajak ingliz tili oqituvchilarini aqlli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba–sinovlari**

ishlari, natijalarning tahlili va samaradorligi” deb nomlanib, ikki fasldan tashkil topgan. **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqlli(smart) texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari”** birinchi faslida tadqiqot maqsadi va vazifalari, tajriba-sinov ishlarining bosqichlari, tajriba doirasidagi metodik ishlanmalar, nazorat va baholash mezonlari bayon qilingan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqlli (smart) texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashga qaratilgan didaktik model samaradorligini baholash maqsadida pedagogik eksperiment tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari 2022–2024 o‘quv yilida to‘rt bosqichda amalga oshirilib O‘zbekiston Respublikasining uchta oliy ta‘lim muassasasi Samarqand davlat chet tillar institute, Guliston davlat universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti 3-4-bosqich talabalari, ya‘ni tajriba (296 nafar) va nazorat (297 nafar) guruhleri ishtirok etdi. Tadqiqot to‘rt bosqichda – tayyorgarlik, aniqlash, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirildi. Har bir bosqichda diagnostika mezonlari va empirik metodlar (so‘rovnoma, test, suhbat, kuzatuv, tajriba) qo‘llanilib, talabalar tayyorgarligining sifat o‘zgarishlari monitoring qilindi. Tayyorlov bosqichida zaruriy o‘quv-uslubiy materiallar ishlab chiqilib, talabalar bilan dastlabki suhbatlar orqali ularning texnologiyaviy savodxonlik darajasi aniqlandi. Aniqlash bosqichida boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va motivatsiya darajalari baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda esa didaktik model asosida treninglar, onlayn kurslar, vebinarlar, interaktiv darslar tashkil qilinib, raqamli vositalardan foydalanish tajribasi shakllantirildi. Yakuniy bosqichda qayta diagnostika orqali bilimlar darajasidagi o‘zgarishlar statistik tahlil qilindi. Tadqiqotda uchta eksperimental guruh (EG-1, EG-2, EG-3) faoliyati turli pedagogik sharoitlarda tashkil etildi. EG-1 guruhida kurs an‘anaviy tarzda o‘tilgan bo‘lsa, EG-2 da konsentratsiyalangan darslar, EG-3 da esa trening, vebinar va onlayn mashg‘ulotlar bilan boyitilgan metodik yondashuv qo‘llanildi. Har uchala guruhda bir xil didaktik model asosiy mustaqil o‘zgaruvchi sifatida joriy etildi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, ularning bilim darajasi, motivatsiyasi va amaliy ko‘nikmalarida ijobiy dinamika kuzatildi. Misol uchun, talabalar asosan SMART Board va SMART Notebook dasturlarini boshlang‘ich darajada bilgan bo‘lsalar-da, o‘quv kursi yakunida raqamli taqdimot, interaktiv topshiriq, onlayn aloqa, elektron resurslar bilan ishlash kabi ko‘nikmalarni puxta egalladilar. Diagnostik kuzatuv va testlar asosida talabalar motivatsiyasi va texnologik tayyorgarligi chuqur o‘rganildi. So‘rovnomalarda, yarim standart suhbatlar va kuzatish metodlari orqali ularning raqamli vositalarga munosabati va ularni qo‘llashdagi qiyinchiliklar tahlil qilindi. Respondentlarning faqat 11 foizi ilg‘or texnologiyalar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lgani, ko‘pchiligi esa faqat bazaviy funksiyalardan foydalana olishi aniqlandi. Shu bilan birga, 76 foiz talaba texnologiyalar mavjudligiga qaramay, ularni faol dars jarayonida qo‘llay olmasligini bildirgan. Tadqiqot davomida kognitiv (bilim), motivatsion (rag‘bat), va faoliyat (amaliyot) komponentlari asosida talabalar tayyorgarligi mezonlari ishlab chiqildi. Ayniqsa, EG-1 va EG-2 guruhida kuzatilgan natijalar modelning samaradorligini isbotladi: interaktiv metodlardan

foydalangan holda tashkil etilgan ta'lim faoliyati raqamli kompetensiyalarni samarali shakllantirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, eksperiment asosida ishlab chiqilgan didaktik model bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlik darajasini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida o'zini namoyon etdi. Mazkur metodologik yondashuv oliy ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlikni chuqurlashtirish, o'qituvchilarni interaktiv, mustaqil va motivatsion dars tashkil etishga tayyorlashda keng amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Dissertatsiya uchinchi bobining **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini aqlli(smart) texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishni amalda tatbiq etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlili va samaradorligi”** ikkinchi faslida tadqiqot dizayni va metodik yondashuvlar, SMART texnologiyalar tatbiqining asosiy yo'nalishlari, baholash natijalari va statistik tahlil, sifat tahlili, ilmiy-amaliy xulosa, tavsiyalar yoritilgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli (smart) texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarni tizimli va maqsadli integratsiya qilish ularning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda ishtirok etgan eksperimental guruhlar (EG-1, EG-2 va EG-3) doirasida turli yondashuvlar (tarqoq, kontsentratsiyalangan va qo'llab quvvatlovchi vebinarli formatlar) sinovdan o'tkazildi. Har uchala model samaradorligini ko'rsatdi, biroq ayniqsa tizimli uslubiy yordam (onlayn maslahatlar, vebinarlar) bilan birga olib borilgan kontsentratsiyalangan ta'lim formati bo'lajak o'qituvchilarning aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorligini rivojlantirishda eng samarali bo'ldi. Shuningdek, o'quv xonalarining zamonaviy texnologik jihozlanishi (SMART Board, SMART Learning Suite, hujjat kamerasi, mobil ilovalar va platformalar), mashg'ulotlar mazmunining raqamli-interaktiv formatda bo'lishi, hamda talabalar mustaqil ishini yo'naltirish va kuzatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar – bu omillarning barchasi didaktik model samaradorligining muhim omili bo'lib xizmat qildi.

Tajriba guruhida barcha kompetensiyalar bo'yicha “a'lo” va “yaxshi” baholar yuqori, ayniqsa o'qish, gapirish va aqlli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarida sezilarli ustunlik bor. Nazorat guruhida esa “qoniqarsiz” natijalar ancha ko'proq kuzatiladi, bu esa oddiy ta'lim sharoitlarida yetarli samaraga erishilmaganligini ko'rsatadi. Bu farqlar tajriba asosida yaratilgan didaktik model va konkret o'quv muhitida qo'llanilgan aqlli texnologiyalar ta'siri samaradorligini yaqqol ko'rsatmoqda. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda ta'lim muassasalari zamonaviy interfaol texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lsa-da, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ularni samarali va to'liq foydalanish bo'yicha tayyorgarlik darajasi yetarli emas. Statistik ma'lumotlar asosida aniqlanishicha: 80% auditoriyalarda interfaol doskalar mavjud bo'lsa-da, talabalar faqat 20% holatda ushbu qurilmalarga ega; 72% talaba interfaol doska dasturini kompyuterlariga o'rnatgan bo'lsa-da, faqat 12% talaba dasturiy ta'minotning yangi versiyasi bilan ishlash tajribasiga ega;

Talabalarning aksariyati an'anaviy usullarga tayanishni afzal ko'radi, innovatsion texnologiyalarni qo'llashga esa sustlik bilan yondashadi. Bu holatlar bo'lajak o'qituvchilarning motivatsiyasi pastligi, texnik va metodik bilimlar yetishmasligi, tashkiliy muammolar va innovatsiyalarga qarshilik kabi omillar bilan izohlanadi.

O'quv kurslari doirasida o'tkazilgan eksperimentlar interfaol texnologiyalar, xususan, SMART Learning Suite vositalarini qo'llash orqali talabalarni darsga jalb qilish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, test va dars konstruktori kabi vositalar yordamida interaktiv kontent yaratish imkonini bergani aniqlandi. Bu esa ularning raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: 1. Motivatsiyani kuchaytirish – yangi texnologiyalarga nisbatan qiziqishni shakllantirish; 2. Texnik va metodik bilimlarni rivojlantirish – zamonaviy dasturiy vositalarni amaliy darslarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish; 3. AKT kompetensiyasini oshirish – bu kompetensiya o'qituvchilik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda asosiy rol o'ynaydi; 4. Innovatsion texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish – o'quv jarayonini sifatli tashkil etish imkonini beradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligi – nafaqat ularning individual qiziqishi yoki motivatsiyasi, balki metodik yondashuv, tizimli o'quv tayyorgarligi va tashkiliy qo'llab-quvvatlovga bog'liq. Shuning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bu borada kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur. Eksperimental mashg'ulotlar davomida SMART Learning Suite dasturi orqali o'tkazilgan amaliy va nazariy mashqlar talabalar uchun samarali o'quv muhiti yaratadi.

Raqamli interaktiv didaktik majmualar, test topshiriqlari, dars konstruktorelari kabi vositalardan foydalanish orqali talabalar o'zlarining metodik mahoratlarini, texnologik ko'nikmalarini oshirishga muvaffaq bo'lishdi. Ayniqsa, o'z-o'zini o'rganish, topshiriqlarni guruhda bajarish, loyihaviy ishlanmalarning taqdimoti kabi faoliyatlar natijasida ularning motivatsiyasi oshgani va ijodiy yondashuv kuchaygani kuzatildi. SMART texnologiyalarini o'rganishga qaratilgan o'quv kursi, uslubiy vebinarlar va onlayn maslahatlar orqali talabalar bilimlarini mustahkamlashga, ularni real pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qildi. Eksperimental guruhlar bilan olib borilgan mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, mazkur yondashuv o'z samarasini berdi: talabalar raqamli kontent yaratish, uni taqdim etish va tahlil qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini shakllantirishda quyidagi asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi: Motivatsiyani oshirish; Texnik va metodik tayyorgarlikni kuchaytirish; Innovatsion vositalarni amaliyotga tatbiq qilish; Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish; Shaxsiylashtirilgan ta'lim va vebinarlardan samarali foydalanish. Shunday qilib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashda kompleks didaktik modelni joriy etish dolzarb bo'lib, bu nafaqat ularning kasbiy

tayyorgarligini oshirishga, balki ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga ham xizmat qiladi. O'tkazilgan eksperiment natijalari aqlli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv kursining talabalarning kasbiy tayyorgarligi, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayonida raqamli interaktiv texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini yaqqol ko'rsatdi (1-chi jadvalga qarang).

1-jadval

Aqlli texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida fanga oid kompetensiyalarning rivojlanganligi ko'rsatkichlari (tajriba boshida)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari			
		A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Tajriba guruhi	296	62	97	112	25
Nazorat guruhi	297	31	43	180	43
Jami	593				

Tajriba boshidagi ko'rsatkichlarga ko'ra, tajriba guruhida "a'lo" baho olganlar soni 62 nafar (21%), nazorat guruhida esa 31 nafar (10%) bo'lgan. Tajriba yakunida bu ko'rsatkich tegishli ravishda 109 nafar (37%) va 71 nafar (24%) gacha oshdi (2-chi jadvalga qarang).

2-jadval

Aqlli texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida fanga oid kompetensiyalarning rivojlanganligi ko'rsatkichlari (tajriba yakunida)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari			
		A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Tajriba guruhi	296	109	110	77	-
Nazorat guruhi	297	71	131	85	10
Jami	593				

Bu farq o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo'ldi: tajriba guruhida o'rtacha ball 77,25 ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 63,75 ballni tashkil etdi. 13,5 ball farq tajriba guruhining ustunligini isbotlab berdi.

Sifat tahlillari quyidagilarni ko'rsatdi:

Talabalar raqamli kontent yaratishda aqlli texnologiyalar vositalaridan samarali foydalana olishdi;

Kurs davomida ularning mustaqil ta'lim olish, ijodiy fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari rivojlandi;

Talabalarning aqlli texnologiyalar bilan ishlashga bo'lgan motivatsiyasi oshdi;

Kurs yakunida ular ushbu texnologiyalarni kasbiy faoliyatlarida samarali qo'llay olishga tayyor holatda shakllandilar.

Quyidagi barqaror munosabatlar aniqlandi:

– talabalarning o'zlashtirilgan kontent qobiliyatining o'sish dinamikasi ta'lim motivatsiyasini ta'minlash dinamikasiga qaraganda yuqori;

– aqlli texnologiyalari orqali raqamli tarkibni yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni ta'lim kursini taqsimlangan o'rganish sharoitida yanada samarali davom etadi;

– aqlli texnologiyalari bo‘lajak ingliz tilini o‘rganuvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, etarli darajada rivojlangan ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun imkoniyatlar yaratadi;

– aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlikning kognitiv komponenti (bilimlari) motivatsion va faoliyat komponentlariga qaraganda samaraliroq shakllanadi;

– aqlli texnologiyalar bilan ishlash orqali talabalarning til kompetensiyalari rivojlanadi.

Umuman olganda, aqlli texnologiyalarni o‘qituvchilar tayyorlov jarayoniga integratsiyalash orqali nafaqat texnologik ko‘nikmalar, balki kasbiy kompetensiyalar, ijodkorlik va metodik yondashuvlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tariladi.

UMUMIY XULOSALAR

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining aqlli (smart) texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi zamon ta’limining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonlari o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bo‘yicha kompetensiyasini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda aqlli texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aqlli texnologiyalardan foydalana olishga o‘rgatish ularning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu borada ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va vositalarini yangilash muhim hisoblanadi.

3. Tadqiqotda ishlab chiqilgan didaktik model orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tayyorgarligi motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlari asosida baholandi. Model asosida maxsus o‘quv kursi va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. Tajriba-sinov ishlari natijalari, tajriba va nazorat guruh ishtirokchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalari nazariy va amaliy jihatdan ancha oshganini ko‘rsatdi. Bu, taklif etilgan model va metodik yondashuvlar samaradorligini isbotlaydi.

5. Tadqiqot davomida qo‘llangan pedagogik sharoitlar, ya’ni raqamli platformalardan foydalanish, muammoli topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar, zamonaviy ilovalar (LMS, mobil dasturlar, AR/VR texnologiyalari) samarali natija berdi.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlovchi diagnostika vositalari (testlar, anketa so‘rovlari, kuzatuv kartalari) asosida ularning ko‘nikmalari va o‘zlashtirish darajasi empirik jihatdan o‘lchab borildi. Natijalar statistik usullar bilan tahlil qilindi.

7. Xalqaro tajriba tahlili, jumladan, Singapur, Yaponiya va AQSh kabi ilg'or davlatlarda o'qituvchilarni raqamli kompetensiyaga tayyorlash tajribalari O'zbekiston sharoitida moslashtirib qo'llash imkoniyatlarini ochib berdi.

8. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalari uchun metodik-uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun "Aqlli texnologiyalar asosida ingliz tilini o'qitish" yo'nalishida maxsus o'quv-modul kurslarini joriy etish va bu boradagi amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish lozim.

2. Kasbiy tayyorlov jarayonida motivatsion, kognitiv va amaliy-kompetension komponentlarni uyg'unlashtirgan holda, zamonaviy raqamli vositalar, ilovalar, AR/VR, LMS, sun'iy intellektga asoslangan platformalardan foydalanishga yo'naltirilgan model asosida o'quv dasturlari takomillashtirilishi tavsiya etiladi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida o'qituvchi-trenerlar tayyorlash tizimini shakllantirish va ular orqali ingliz tili o'qituvchilarini uzluksiz ravishda zamonaviy smart texnologiyalarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

4. Tajriba-sinov ishlarida o'zini oqlagan didaktik model, pedagogik shart-sharoitlar, o'quv materiallari va diagnostika vositalaridan amaliyotda keng foydalanish taklif etiladi.

5. Ilmiy-uslubiy markazlar va ta'lim muassasalari hamkorligida aqlli texnologiyalar bo'yicha seminar-treninglar, metodik qo'llanmalar, onlayn kurslar va tajriba almashish platformalarini yo'lga qo'yish tavsiya qilinadi.

6. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasini baholash uchun muvofiq indikatorlar va mezonlar asosida shakllangan baholash mezonlarini joriy etish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.12. 2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ФАЙЗУЛЛАЕВА ДИЛЬНОЗА УБАЙДУЛЛАЕВНА

**РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УМНЫХ (СМАРТ)
ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/Ped4907.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте www.samdchti.uz и по адресу www.ziyounet.uz Информационно-образовательного портала «ZiyoNet».

Научный руководитель: Махмудова Муассар Махмудовна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Буранова Мадина Уктамовна
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент

Утаева Ирода Баходировна
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент

Ведущая организация: Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится на равном заседании Научного совета при Научном совете PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков «15» сентябрь 2025 года в 12:00 часов. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43 Тел.: (+99866) 238-29-37, Факс: (+99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрировано под № 62201) Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43 Тел.: (+99866) 238-29-37)

Автореферат диссертации разослан « 30 сентябрь » 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 36 от « 30 » сентябрь 2025 года).



Н.З. Насруллаева
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кудшов
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации и цифровой трансформации во всем мире процесс внедрения современных педагогических технологий в систему образования приобретает стремительные темпы. На сегодняшний день применение умных-технологий в образовательном процессе играет важную роль в повышении эффективности усвоения знаний, стимулировании обучающихся и студентов к самостоятельному мышлению, инновационным подходам и творческой деятельности. Умные-технологии позволяют индивидуализировать учебный процесс, усиливать интерактивное взаимодействие между преподавателем и обучающимся, обновлять содержание образования и развивать цифровые компетенции.

Перед мировой системой образования встают новые задачи. В частности, использование цифровых и умных-технологий как неотъемлемого фактора эффективной организации учебного процесса становится всё более актуальным. Подготовка будущих учителей английского языка на основе данных технологий является важным условием повышения их профессионального потенциала и формирования конкурентоспособных специалистов. Применение умных-технологий расширяет возможности студентов в самостоятельном обучении, усиливает интерактивность в образовательном процессе и способствует внедрению инновационных подходов.

В Республике Узбекистан повышение качества преподавания иностранных языков, в частности английского языка, является одним из приоритетных направлений государственной политики. Принятые в последние годы указы и постановления, а также организация образовательного процесса на основе международных требований CEFR предъявляют к будущим учителям английского языка высокие требования в части профессиональной подготовки, освоения инновационных и цифровых технологий. Однако практика показывает, что будущие учителя английского языка не обладают достаточной подготовкой к использованию умных-технологий в учебном процессе. Система дидактических моделей и методических рекомендаций, способствующих формированию их профессиональных компетенций, пока не разработана в полной мере. В связи с этим возникает необходимость научного изучения и методического обеспечения процесса развития у будущих учителей английского языка навыков использования умных-технологий в образовательном процессе. Актуальность данного исследования определяется его направленностью на повышение эффективности учебного процесса, подготовку будущих учителей английского языка к успешной деятельности в цифровой образовательной среде и подготовку кадров, отвечающих международным стандартам.

Подготовка конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров в сфере высшего образования является одним из приоритетных направлений

государственной политики Республики Узбекистан, и в целях её реализации предпринимаются конкретные практические меры. В частности, в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 года особо подчёркнута необходимость внедрения электронных платформ на основе достижений науки, а также формирования базы данных отечественных и зарубежных научных разработок. Данные инициативы получили закрепление в Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по утверждению и эффективной реализации Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”» № УП–6079. В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП–5117 «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап» определены такие задачи, как развитие преподавания иностранных языков как приоритетного направления образовательной политики, коренное повышение качества образования, привлечение квалифицированных педагогов и повышение интереса населения к изучению иностранных языков. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» первым направлением определено «Возвеличивание человеческого достоинства и проведение активной социальной политики», где акцент сделан на коренную реформу сферы образования, обновление её содержания, расширение охвата на всех уровнях, повышение качества и укрепление статуса педагогов. Одновременно предусмотрено создание открытой и прозрачной системы путём цифровизации образовательного процесса, расширение возможностей электронных учебников, интерактивных платформ и дистанционного обучения. Указанные нормативно-правовые документы составляют методологическую основу данного исследования и служат реализации научных задач, предусмотренных диссертацией.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1.«Формирование системы инновационных идей в процессе социального, правового, экономического, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В рамках исследования были изучены труды следующих отечественных ученых по методике преподавания иностранных языков и развитию профессиональных компетенций: Ж.Ж. Жалолов, Х.Т. Мустафаева, У.Хашимов, Л.Т. Ахмедова и другие²⁴.

